

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXINLIGI FANINING  
AHAMIYATI**

**Atamurodova Qunduzoy Abdug'aniyevna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti*

*Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

*qatamurotova@gmail.com*

**Meliboyeva Sojida O'ktamovna**

**Norboyeva Roza Arslonovna**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*3-bosqich 3BT-21 guruh talabalari*

*Telefon:+998881916003*

*meliboyevasojida@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi yangi kiritilgan fanining ahamiyati, boshlang'ich ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari, sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslari samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan interfaol metodlar, o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida unumli qo'llashga doir fikrlarimizni bayon etilgan.

**kalit so'zlar:** Savodxonligi, ko'nikmasi, interfaol metodlar, axborotlar texnologiyalar.

**Abstract:** In this article, the importance of the newly added science of mother tongue and reading literacy in primary grades, issues of formation and development of the ability to understand and understand the text in primary school students in the primary education system, mother tongue and interactive methods used to improve the effectiveness of reading literacy classes, the teacher's thoughts on the effective use of advanced pedagogical and new information technologies in the educational process are described.

**Key Words:** Literacy, skills, interactive methods, information technologies.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается значение вновь добавленной науки о родном языке и читательской грамотности в начальных классах, вопросы формирования и развития умения понимать и понимать текст у учащихся начальных классов в системе начального образования, родного языка и Описаны интерактивные

методы, применяемые для повышения эффективности занятий по читательской грамотности, размышления учителя об эффективном использовании передовых педагогических и новых информационных технологий в образовательном процессе.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Грамотность, навыки, интерактивные методы, информационные технологии.

## **KIRISH**

Biz pedagoglar bilamiz shu paytgacha Ona tili va O'qish fanlari alohida o'qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan tashkil etildi.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi. Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi. Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan. Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit

matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan .

Ona tili metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standart belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzda nutqiy aloqaga, to'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lumotlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elementar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar.<sup>77</sup>

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Boshlang'ich ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va anglash ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyo ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga, ularning fanlardan yaxshi o'zlashtirishlariga alohida e'tibor beriladi. Xususan, mamlakatimizda ham bu borada yaxshi o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarining bilimni baholash, ta'lim sifatini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish belgilab qo'yildi. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash, unda munosib ravishda ishtirok etish uchun maktablarda aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida

<sup>77</sup> Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S., Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. Ona tili oqitish metodikasi. Toshkent, 2019. 7 bet

matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish zarurligi biz o'qituvchilar oldiga ko'ndalang masala sifatida qo'yildi. Bunga munosib tayyorgarlik ko'rish uchun xalqaro tadqiqotlarning oldingi yillari natijalariga e'tibor berishimiz lozim. Xalqaro tadqiqotlarning so'ngi 2016-yilgi natijalarini kuzatsak, Rossiya davlati yetakchi bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Rossiya metodiga nazartashlasak, unda ko'proq ota-onalar bilan hamkorlik masalalariga e'tibor qaratganlarini kuzatamiz. Bunda turli ertak va hikoyalar otaonalar tomonidan o'qib berilgan hamda farzandlar bilan birgalikda savol-javoblar orqali o'qilgan matn mustahkamlangan. Bolaning har bir voqeylikka nisbatan bo'lgan munosabati tinglangan.

Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

- O'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravish- da ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

- Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.

Milliy dasturda ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vu- judga keltirish bo'yicha ta'kidlangan ko'rsatmalar, uzluksiz ta'limni ta'minlash borasidagi islohotlarni amaliyotga tatbiq etish boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.<sup>78</sup>

## **NATIJARLAR**

Boshlang'ich sinflarni o'qish savodxonligini oshirishda metodlar, didaktik o'yinlar, ko'rgazmali qurollar ham yordam beradi. Masalan, turli voqealar tasvirlangan rangli rasmlar juda katta qo'l keladi. O'qituvchi tomonidan o'qish darslarining mustahkamlash qismida yoki uyga vazifa sifatida har bir o'quvchiga alohida tarzda tayyorlangan suratlar beriladi. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda hamda ota-onalarining ko'maklari yordamida rasmlarga mos ravishda matn tuzishadi. 1-sinfning birinchi yarim yilligida bu mashq og'zaki tarzda, keyinchalik yozma tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. 2-,3-,4-sinflarda bolalar tomonidan tuziladigan matnlar soddadan murakkabroq ko'rinishga o'tib boradi. Ya'ni dastavval ikki, uch gapli matn tuzilgan bo'lsa, bolaning yoshi, fikr doirasi ortiorishiga qarab matndagi so'zlar va gaplar hajmi ham, sifati ham ortib boraveradi. Suratlariga qarab matn tuzish bolalarda dunyoqarashning o'sishiga,

<sup>78</sup> Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yoldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oqitish metodikasi Toshkent, Noshir, 2009.7-bet.

adabiyotga nisbatan muhabbatning ortishiga, soʻz boyligining koʻpayishiga, tuzgan matnlariga va oʻqish darolarida matnni tushinish hamda anglash koʻnikmalarini rivojlanishiga ulkan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bolalarga ota-onalarning yordami juda muhim hisoblanadi. Suratga mos gaplarni bir-biriga ulab, moslab yozishda ota-onalarimiz koʻmakdosh boʻlishi lozim. Oʻquvchi matn tuzish jarayonida uni ongli tarzda tuzadi. Har bir soʻzlarni oʻz oʻrnida qoʻllay olish unga keyinchalik dars va darsdan tashqari holatlarda duch keladigan matnlarni tub maʼnosini tushunish hamda anglashga katta yordam beradi .

Boshlangʻich oʻquvchilarida matnni tushunish va anglash koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi dastlabki qadamlarda yordam beradigan metodlardan biri "Takrorlama" metodini koʻrib chiqamiz. Oʻquvchilar qatorlariga qarab uch guruhga boʻlinadi. Doskaga uchala guruh uchun alohida-alohida rangli suratlar ilib qoʻyiladi. Bu oʻyin chorak oxirlarida yoki maʼlum bir boʻlim yakunida tashkil etilsa ham boʻladi. uch guruh uchun 3xil boʻlimdagi suratlar ilib qoʻyiladi va oʻyin boshlanadi.

(Agar suratlarining hajmi kichikroq boʻlsa, oʻquvchilar 5-6 ta kichik guruhlarga boʻlinib, suratlar bolalarning qoʻllariga beriladi). Oʻyinimizning qoidasi: 1. Suratga mos sarlavha topish; 2. Tuzilayotgan gaplarning suratga mos kelishi; 3. Gaplar mazmunan bir-birini toʻldirishi kerak; 4. Bir marotaba aytilgan gap boshqa takrorlanmasligi lozim. Bu asosiy qoidalardan hisoblanadi.

Aqliy hujum»metodi -Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qoʻllaniladigan metod sanalib, u mashgʻulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, oʻz tasavvurlari va gʻoyalardan ijobiy foydalanish borasida maʼlum koʻnikma hamda malakalarni xosil qilishga ragʻbatlantiradi[32]. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashgʻulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tugʻiladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida maʼlum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil boʻlgan gʻoyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

### **XULOSA**

Mashgʻulotlar jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar: 1.Mashgʻulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish[8].2.Har bir oʻquvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki gʻoyalar miqdori ragʻbatlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng

maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi. 3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikri yoki g'oyalariга asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi[46]. 4. Mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'ymaydi. Agarda ularning fikrlari baholanib, boriladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirish ekanligini etibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (O'quv qo'llanma) –T.: Moliya, 2003. 23-bet
2. Qosimova K., Matjonov S., Gulomova X., Yoldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oqitish metodikasi Toshkent, Noshir, 2009. 7-bet.
3. Ibragimova F.E., Farsaxonova D.R., Shukurova H.S., Mamayusupova S.M., Xolsaidov F.B. Ona tili oqitish metodikasi. Toshkent, 2019. 7- bet